ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI TARKIBIDAGI “OT” VA “IT” KONSEPTLARINING SEMANTIK XUSUSIYATI

Xamidov Mansur Abdumannobovich
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi (PhD)
Mansurimomali17@gmail.com
+998996709196

Annotatsiya

Maqolada maqollarning semantik strukturasi asosini tashkil etuvchi komponentlardan zoonimlarning o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtalindi. Ayniqsa, “ot” va “it” konseptlarining etnografik va lingvistik jihatlari tahlilga tortildi. Ushbu konseptlarning semantik etaloni, ularning nutqdagi situasion holatdagi o‘zgarish takomili yoritildi. Barqaror birikmalar sirasidagi maqollarning folklors hunoslik va tilshunoslikning ob yekti sifatidagi ahamiyati, farq va o‘xshashlik xususiyatlari bilan bir qatorda fanlararo integrasion holatlarning o‘zaro ta’siri ham yoritildi.

Аннотация

В статье акцентировано внимание на спесифических характеристиках зоонимов от компонентов, составляющих основу семантической структуры пословис. В частности, были проанализированы этнографический и лингвистический аспекты консептов «лошад» и «собака». Освещен семантический стандарт этих понятий, их эволюсия в ситуативном состоянии речи. Выделено значение пословис как обекта фолклористики и языкознания, характеристика различий и сходств, а также взаимодействие междиссиплинарных интеграсионных случаев.

Annotation

The article focuses on the specific characteristics of zoonyms from the components that form the basis of the semantic structure of proverbs. In particular, the ethnographic and linguistic aspects of the concepts "horse" and "dog" were analyzed. The semantic standard of these concepts, their evolution in the situational state of speech are highlighted. The significance of proverbs as an object of folklore and linguistics, the characteristics of differences and similarities, as well as the interaction of interdisciplinary integration cases are highlighted.

Kalit so‘z va iboralar: “Ot” va “it” leksemasi, konsept, maqollar, paremiologik birliklar, barqaror birikmalar, nutqiy pozisiya va situatsiya, transformasiya, variativlik.

Ключевые слова и словосочетания: лексемы «кон» и «собака», консепт, пословисы, паремиологические единисы, устойчивые соединения, речевая позисия и ситуасия, трансформасия, варирование.

Keywords and phrases: lexemes "horse" and "dog", concept, proverbs, paremiological units, stable compounds, speech position and situation, transformation, variation.

Bir ilmiy davrada tilshunos olim, professor Bekpo‘lat Umurqulovning “Ot saqlashga hurmatimiz, it boqishga himmatimiz yetmaydi” degan gaplarini ko‘p mushohada qildik va ushbu ilmiy maqolaning yozilishiga turtki bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. To‘g‘ri barqaror birikmalar tarkibida yoki ularning yadroviy semantikasidan hosila bo‘lgan o‘z va ko‘chma ma’nolar yig‘indisi qaysidir zoonimning xil xususiyatiga ishora bo‘lgan holatlar juda ko‘p uchraydi. Ayniqsa,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

"It" va "Ot" leksemali barqaror birikmalar salmoqli o'rin tutadi. Farg'ona vodiysining uchar otlari, afsonalardagi farishtasifat qanotli otlar, yunon va rim asotirlaridagi kentavrlar timsoli, ov qilishda va ch o'ponlarning yondosh do'sti, insonlarga vafodor b o'lgan itlar va hokazolar xususida k o'p eshitganmiz. Prof. A.Omonturdiyev tomonidan tuzilgan "Chorvachilikka oid so'z va atamalarning qisqacha tematik evfemik lug'ati" II qismi chorvador nutqi bilan bog'liq shakllangan evfemik maqollar izohiga bag'ishlangan bo'lib, unda tarkibida qo'y, echki, bo'ri, qoramol, eshak, tuya va boshqa zoonimli leksemalar mavjud maqollar izohlangan bo'lib, maqollarning semantik strukturasida "it" va "ot" leksemali paremalar salmoqli o'rin egallagan. Aniqrog'i, tarkibida "ot" so'zi qatnashgan maqollar 51 tani, ikkitasining variantdoshi ham keltirilgan. Fojia yuz berganda, mard himoya qiladi; nomard tashlab ketadi mazmunidagi Otdan yiqilsang yolini to'shaydi, eshakdan yiqilsang tuyog'inining varianti Otdan yiqilsang paxta, eshakdan yiqilsang taxta maqoli bilan ifodalangan. Zoti past onadan yaxshi zurriyod qolmaydi ma'nosini Alp – onadan, ot – biyadan, lo'k – tuyadan va unga variantdosh sifatida esa Alp – onadan, bedov – biyadan, norbo'ta – moyadan maqqoli bilan keltirgan. Lug'atda "it" leksemasi mavjud maqollar esa 30 tani tashkil qilgan bo'lib, bulardan tashqari "tozi" leksemasi tarkibida kelgan maqollar 4 ta, "kuchuk" so'zi qatnashgan maqol esa 1 ta qayd etilgan. Ularning bundan tashqari "ot" leksemasiga yondosh semali maqollarda yag'ri, uzangi, egar, yugan, baytal, tuyoq, yol, suvliq, tulpor, otliq, na'l, qoziq, qamchi, quloq, teri, kishnamoq, tepmoq, biya, toychopar, qulun, do'non, jilov, ayg'ir, bedov, arg'umoq, uloq, ko'pkari, oxu(i)r, suruv, poda hamda "it" leksemasiga aloqador bo'lgan tozi, is(hid), dum, tishlamoq, ulimoq... so'zlari aynan asosiy, markaziy leksema bo'lgan "ot" va "it"ga ishora qiladi, ular bi lan bevosita va bilvosita aloqadorlik kasb etadi. Buni qismdan butunga borish deb izohlashimiz ham mumkin. Bungacha yaratilgan maqollar izohiga bag'ishlangan lug'atlarda ham bu leksemalarning o'rni, miqdoriy ko'lami va ahamiyat doirasi k o'pligini, rangbarangligini kuzatamiz. Eng muhim jihati ularning miqdorida ham emas, dialektal paremalarning xalq tilidan yozib olinganidadir. Bu xususida O'zbek tili va adabiyoti oynomasining 1965-yildagi 2-sonida (24-bet) e'lon qilingan Muhammadjon Hakimovningning maqolasida ilk daf'a shu haqda ta'kidlangan edi: "Shu narsani qayd qilish kerakki, o'zbek tilida maqol uchun va badiiy asarda maqol keltirish uchun ishlatiladigan termin va so'zlar juda ko'p. Lekin bularning ichida praktikada ko'p ishlatiladigan maqol terminidir. Dialektlarda maqol terminlarining ekvivalentlarini aniqlash, to'plash va o'rganish navbatdagi masaladir". Keyinchalik shu tahlit fikrlar O'TA jurnalning 1983-yil 5-sonida (61-bet) M.Sadriddinovaning "Xalq maqollari tarkibida dialektizmlar" maqolasida ham uchratish mumkin: *"...o'zbek tilidagi barcha maqol va matallarning ajralmas qismi bo'lmish dialektizmlar fonetik, morfologik va leksik dialektizmlardir. Hozirgi dialekt vakillari maqollarida dialektizmlarning shu uchala komponenti ham mavjud bo'lib, adabiy tildagi maqollarda esa, asosan, leksik dialektizmlar ko'proq saqlangan, ammo fonetik va morfologik dialektizmlar ifoda etilmaydi. Badiiy asarlarda dialekt koloriti berish uchun ular ayrim personajlar tilida uchrashi mumkin".* prof. B.Yo'ldoshevning "Mustaqillik yillarida o'zbek frazeologiyasi: erishilgan yutuqlar va navbatdagi vazifalar" maqolasining nihoyasida 6-dolzarb vazifa sifatida o'zbek dialektal frazeologiyasi bo'yicha bajarilgan ishlar hozircha bir necha ilmiy maqolalardan iboratligi, bu borada hali o'z yechimini kutib turgan ishlarni bajarish zarurligi keltirib o'tilgan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Sodda gap tipidagi yoki qo‘shma gap konstruksiyali maqollarning umumlashma semantik manzarasida hozirgi adabiy tilimiz normalariga mutanosiblarining o‘zini ikki guruhga ajratish ma’qul bo‘ladi:

1. Tarkibida dialektal so‘z qatnashgan maqollar.

Chachasi (ot tuyoqlarining yuqori qismidan o‘sib chiqqan soch, yolcha) uzun ot zotli bo‘lar; Oltmish qulon(otdan kichikroq, eshakdan kattaroq hayvon, yovvoyi xachir)dan ot bo‘lmas; Qalmoqi(ot turi) ot qoqilmas, qoqilsa ham yiqilmas; Ot yaxshisi – yovmut(ot turi), to‘n yaxshisi – movut; Otning to‘rig‘i(qora qizil, to‘q jiyron tusli ot) yaxshi, yuganning – o‘rig‘i(o‘rilgan, to‘qilgan); Itning egasi yo‘q, qozonning chegasi(sinig‘i, mahkamlangani) yo‘q; Itdan suyak ortsa – ortar, yuqtob(ochko‘z, badnafs, sulloh)dan suyak ham ortmas.

2. Maqol strukturasida dialektal leksema mavjud bo‘lmagan maqollar.

Otli yigit – baxtli yigit; oti bor – Alpomish; Ot – yigitning qanoti; Chopqir ot – o‘tkir pichoq; Oti bor – botir, oti yo‘q – yotir; Yaxshi ot – yarim rizq; It tumshug‘iga suv yetganda suza boshlaydi; Har ikki holatda ham shevaga xos va mos bo‘lgan so‘zlar maqol tarkibida kelsa ham yoinki qatnashmagan holatda ham ularning semantikasida farq kuzatilmaydi. Biroq dialektal so‘z maqol tarkibida boshqa ma’no, maqol konteksidan tashqari holatda boshqa ma’noda kelishi ham mumkin. Bu o‘z navbatida nutqiy vaziyatdan kelib chiqadi:

Ot chag‘iri – itga barobar, It chag‘iri – otga barobar; Otning chamaniga minguncha. Piyoda yur o‘lguncha. Bu maqollardagi “chag‘ir” so‘zi asl ma’nosida, nutqdan tashqari holatda ola-bula, ola-chipor ma’nosini ifodalaydi, maqolda ko‘zi o‘tkir yoki o‘tmas ma’nosida ifodalanadi. “Chaman” so‘zi gulzor, chiroy makoni ma’nosida bo‘lib, maqol tarkibida sekin-asta, yalqov, imillab qadam bosadigan dangasa ma’nosini ifodalashda qo‘llanilgan.

Qadimgi dunyo tarixidan ma’lumki, insoniyat tamaddunida dastavval hayvonlardan it qo‘lga o‘rgatilgan, parvarishlangan. Turgan gapki, “it” leksemasi qadimiylikda boshqa hayvon nomlari bilan bog‘liq b o‘lgan maqollardan alohida ajralib turadi. Buni Mahmud Koshg‘ariy Turkiy tilli xalqlarning lingvistik qomusi bo‘lgan “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida ham “It” va “Ot” leksemali maqollar izohiga to‘xtalgan. Yäzïda böri ulïsa, ewdä ït bağri tartïšur – Dashtda bo‘ri ulisa, unga achinib, uydagi itning bag‘ri o‘rtanadi, Taz at tawarčï bolmas – Termisi yo‘l-yo‘l, ola otda yuk tashib bo‘lmaydi. Chunki uning tirnog‘i yomon.

Duldul haqidagi (ar. – jayra. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) tomonidan Hazrat Ali ibn Abu Tolibga tortiq qilingan ot. Kuchliligi, uchqurligi bilan mashhur bo‘lgan) rivoyatlarga, shuningdek, me’roj kechasi hamroh b o‘lgan “Buroq” nomli otlarga tayanadigan bo‘lsak, “ot” leksemali maqollarning ham qadim ildizlari juda uzoqqa borib taqalishi anglashiladi. Insonga do‘stlik bobida ham aynan “ot” va “it” vafodorlik ramzi bo‘lib qaraladi. Bu zoononimlar qatnashgan maqollar o‘z ma’nosida yoki ko‘chma ma’noda kelsa ham ularda inson, tabiat va jamiyat bilan bog‘liq jihati mavjud bo‘ladi. Biz bu konseptual belgilarni adabiy asarlarda uchrovchi ayrim jihatlar orqali ham eslab o‘tishimiz mumkin. Masalan, A.Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi, Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasi, Turob To‘laning “Yetti zog‘ora qissasi”dagi Do‘nan hikoyasi, E.S.Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a”si, Said Ahmadning “Qoplon” hikoyasi va boshqa asarlar matnini kuzatar ekanmiz bir umumiy planda berilgan ot yoki it bilan bog‘liq vaziyatlarni yaxlit sistemasi sifatida paremiologik birliklar bilan ham ifodalash mumkin bo‘ladi.

Maqola yakunida qayd etishimiz lozimki, insoniyat jonli tabiatda hayot kechirar ekan u yolg‘iz o‘zi dunyoni anglashi uchun unga birlamchi va ikkilamchi omillar zarur. Bulardan biri til bo‘lgani

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-12

holda u ham yondosh hodisot larsiz takomillashishga, shuning bilan bir qatorda rivojlanishga yuz tutolmaydi. Inson til orqali o‘zini, olamni angash vositalaridan biri nabotot olami bilan birga havonot olamini ham tilga bog‘liq jihatlarini tadqiqlashi har jihatdan ahamiyatlidir. Nafaqat tilga olganimiz “ot” va “it” leksemasi bilan bog‘liq maqollar, shularning qatorida boshqa zoonimlarning ham til vositalariga bog‘liq jihatlarini yanada mukammal o‘rganishimiz, ayniqsa, bu manzilga xalq jonli tili (sheva) ob yekti orqali borishimiz adabiy til ravnaqiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.Omonturdiyev “Chorvachilikka oid so‘z va atamalarning qisqacha tematik evfemik lug‘ati”. – Toshkent, “Brok class servis”, 2015.
2. A.Omonturdiyev, B.Rahmonov “Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lug‘ati”. – Toshkent, “Ilm ziyo zakovat”, 2019.
3. A.Qodiriy To‘la asarlar to‘plami. 1-jild. – Toshkent, Fan, 1995. “Uloqda” hikoyasi. –B.26-34.
4. B.Umurqulov “Poetik nutq leksikasi”. – Toshkent, Fan, 1990.
5. B.Yo‘ldoshev “Mustaqillik yillarida o‘zbek frazeologiyasi: erishilgan yutuqlar va navbatdagi vazifalar”. Xorijiy filologiya №1, 2017. – B.11.
6. M.Koshg‘ariy “Devonu lug‘ati-t-turk”. – Toshkent, G‘.G‘ulom, 2017. – B.374, 412. Nashrga tayyorlovchi Qosimjon Sodiqov.
7. T.Murod “Ot kishnagan oqshom”. – Toshkent, “Sano standart”, 2017.
8. T.To‘la “Yetti zog‘ora qissasi” tarkibidagi “D o‘nan” hikoyasi. “Sharq yulduzi” jurnali. № 10. –B.125-128.
9. Sh.Maxmaraimova “O‘zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug‘ati”. – Toshkent, Cho‘lpon, 2018. –B.59.
10. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. “Hikmatnoma” (O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati). – Toshkent, O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi, 1990.
11. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. “Nega shunday deymiz?” – Toshkent, G‘.G‘ulom, 1987.
12. E.S.Tompson “Yovvoyi yo‘rg‘a” (T.Murod tarjimasi). – Toshkent, G‘.G‘ulom, 1989.
13. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – Toshkent, Fan, 1971. – B. 296.
14. https://islom.ziyouz.com/siyrat/isro-va-me-roj
15. https://qomus.info/oz/encyclopedia/b/buroq/